# Surxon tongi

2026-yil 4-mart (chorshanba)
9-son (17 993)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan | surxontongi.uz | t.me/surxontongi


MUNOSABAT

## IMKONIYAT BISYOR, FIDOYILAR ILG‘OR

***Prezidentimizning viloyatimizga tashrifi vohamiz taraqqiyoti uchun yuksak e’tibor va imkoniyatlar yaratuvchi islohotlar boshlanishi bo‘ldi. Davlat rahbari Surxondaryoni katta salohiyatga ega, mehnatkash va tashabbuskor insonlar yashaydigan hudud sifatida e’tirof etganligi bejiz emas.***

*Prezidentimiz o‘z nutqlarida: **“Surxondaryoda imkoniyat ko‘p, eng muhimi — bu imkoniyatlardan foydalanadigan fidoyi odamlar ham yetarli”**, deya ta’kidlaganligi zamirida viloyatimiz ahliga bo‘lgan yuksak ishonch va e’tiborning samimiy ifodasini ko‘rish mumkin.*

*Tashrif davomida Prezidentimiz vohada amalga oshirilayotgan islohotlar, iqtisodiyot, ma’naviyat, ta’limiy soha va ayniqsa, ta’lim, yoshlar va tadbirkorlik sohasidagi ijobiy o‘zgarishlarni yuqori baholab, **“Agar bilim va tashabbus bo‘lsa, natija, albatta, bo‘ladi”**, deya ishonch bildirdilar. Darhaqiqat, bugun vohada izchil olib borilayotgan islohotlar yurt farovonligi va xalq turmush tarzining yuksalishi uchun xizmat qilayotir.*

*Janubiy viloyatning strategik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va turizm salohiyati vohani mamlakatning tayanch hududlaridan biriga aylantirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sabab ham davlatimiz rahbarining viloyatimiz haqidagi ijobiy fikrlari va aniq topshiriqlari Surxon ahlini yangi marralar sari yanada ruhlantirdi. Shuningdek, Prezidentimiz tashrif davomida yosh avlod ta’lim-tarbiyasini yuksaltirish, zamonaviy bilim va kasb-hunar egallash masalasiga alohida e’tibor qaratdilar hamda ta’lim sohasini rivojlantirish borasidagi islohotlarni yanada jadallashtirish xususida tashabbusli takliflar berdilar. Ya’ni, umumta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda kasb-hunar va oliy ta’limga bog‘liq loyihalar bilan tanishib, bu borada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatladilar.*

*Maktablarda yaratilayotgan sharoitlar, o‘quv jarayonining sifati, o‘qituvchilarning mehnatini munosib rag‘batlantirish masalalari muhokama qilinarkan, ta’lim sifati, avvalo, pedagoglarning bilim va mas’uliyatiga bog‘liqligini ta’kidlab, ularni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishi ekanini qayd etdilar. Shu bilan birga, qishloq joylarida yangi maktablar qurish, mavjud ta’lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, zamonaviy laboratoriya va axborot texnologiyalari bilan jihozlash bo‘yicha aniq topshiriqlar berildi. Yoshlarning chet tillarini o‘rganishi, raqamli bilimlarni egallashi va kasbga yo‘naltirilishi masalalariga alohida urg‘u berildi. Bugungi kunda O‘zbekiston aholisining ko‘p qismini yoshlar tashkil etadi. Demak, yoshlar bilan ishlash, ularga ishonch bildirish, istiqbolli kelajagiga alohida e’tibor qaratish ahamiyatga molik mavzu sifatida qayd etildi. Davlatimiz rahbari Jarqo‘rg‘on tumanidagi yoshlarni xorijiy til va axborot texnologiya bo‘yicha o‘qitayotgan xususiy o‘quv markazi bilan yaqindan tanishib, 8 mingdan ziyod yoshlar tahsil olayotgan markaz faoliyati alohida e’tirof etildi. Bu kabi markazlarni yanada rivojlantirish, tadbikorlarning manfaatini himoya qilish hamda kredit olishlariga ko‘maklashish, zamonaviy standartlarni joriy etish zarurligi ta’kidlandi. Shu maqsadda endi viloyatda O‘quv markazlari uyushmasi tashkil qilinib, bu uyushmaga 100 million AQSH dollari miqdorida mablag‘ jalb etiladi. Ushbu mablag‘lar o‘quv markazi tashkil qilmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarning imtiyozli kredit, subsidiya, joy ijarasining kompensatsiyasi uchun yo‘naltiriladi. Bu esa, albatta, hudud hayotida muhim tarixiy voqea bo‘ladi. Shuningdek, Prezidentimiz 2 ming AQSH dollari miqdorida oylik maosh olayotgan qiziriqlik ustozga: **“Siz Surxon ta’limining nuri ekansiz”**, deya bergan e’tiroflari barcha surxondaryolik ustozlar uchun yuksak bahodir.*

*Darvoqe, bilimli va tashabbuskor avlod — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy tayanchidir. Shu bois, Surxondaryoda oliy ta’lim qamrovini kengaytirish, hudud ehtiyojidan kelib chiqib yangi ta’lim yo‘nalishlarini tashkil etish muhim vazifa sifatida belgilandi. Shu sabab ham har bir imkoniyatdan oqilona foydalanish zarurligini uqtirib, **“Agar biz mavjud imkoniyatlarni to‘g‘ri ishga solsak, Surxondaryo respublikamizning eng jadal rivojlanayotgan hududlaridan biriga aylanadi”**, dedilar.*

*Ushbu tashrif viloyatimizning taraqqiyot yo‘lini yanada mustahkamlab berdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunday e’tibordan so‘ng qo‘lni qo‘lga berib, bahamjihat ishlasak, Prezidentimiz oldida ham, xalqimiz oldida ham yuzimiz yorug‘ bo‘ladi.*

***Dilbar NORMURODOVA,***
*Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi raisi*





***Surxondaryo zaminida bahorning ilk nafasi sezilishi bilan ko‘ngillarda o‘zgacha shukuh, qalblarda esa yangilanish hissi jo‘sh uradi. Sharqona yangi yil – Navro‘z umumxalq bayrami arafasida viloyat bo‘ylab ko‘tarinki ruh hukm surmoqda.***

TARADDUD

## QUTLUG‘ AYYOM 10 KUN DAVOM ETADI

Joriy yilda ushbu qutlug‘ ayyom Termiz tumanidagi “Yangi O‘zbekiston” massivi amfiteatr maydonida o‘n kun davomida keng nishonlanishi rejalashtirilgani esa bayram shukuhini yanada oshirmoqda.

### QADRIYAT VA AN’ANALAR TANTANASI

Navro‘z – bu shunchaki bayram emas, u asrlar qa’ridan bugungi kunimizga yetib kelgan milliy o‘zligimiz, urf-odatlarimiz va ezgu qadriyatlarimizning yorqin timsolidir. Tabiat uyg‘onishi bilan hamohang ravishda inson qalbi ham poklanadi, mehr-oqibat va hamjihatlik tuyg‘ulari mustahkamlanadi. Shu bois, joriy yilgi tadbirlar milliy an’analarimizni keng namoyon etish, yosh avlod qalbida ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘usini yanada mustahkamlashga qaratilmoqda.

Amfiteatr maydonida o‘rnatilayotgan sahna bezaklari, milliy naqsh va ramzlar bilan ziynatlanayotgan hudud Navro‘zga xos rang-barang kompozitsiyalar bayramona muhitni yaratishga xizmat qilmoqda. Har bir bezak, har bir ramz – yangilanish va baraka timsoli sifatida o‘ziga xos ma’no kasb etadi.

### TADORIK ISHLARI – MAS’ULIYAT VA E’TIBOR MARKAZIDA

Ayni vaqtda hududda bayram tadbirlariga tayyorgarlik ishlari jadal sur’atlarda olib borilmoqda. Viloyat hokimi Ulug‘bek Qosimov tayyorgarlik jarayonlari bilan bevosita tanishib, mas’ullarning hisobotlarini eshitdi. Amalga oshirilayotgan ishlar, belgilangan vazifalar ijrosi hamda tashkiliy masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Viloyat rahbari bayramning xalqimiz hayotidagi beqiyos o‘rni va ahamiyatini alohida ta’kidlab, tadbirlarni yuksak saviyada tashkil etish zarurligini qayd etdi. Xususan, aholiga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlaydigan konsert dasturlari, milliy estrada va folklor jamoalari ishtirokidagi chiqishlar, madaniy-ma’rifiy loyihalar hamda milliy sport musobaqalarini puxta rejalashtirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

### XALQ SAYLIGA AYLANADI

Rejalashtirilayotgan o‘n kunlik bayram dasturi o‘z ko‘lami va mazmuni bilan ajralib turadi. Unda sevib iste’mol qiladigan, hatto unutilib borayotgan milliy taomlar ko‘rgazmalari tashkil etiladi. Degustatsiya jarayoni esa barchani mamnun etishi tayin. Hunarmandlar yarmarkalari esa milliy buyumlar, kiyim-kechak va aksessuarlar, taqinchog‘-u suvenirlar xaridi uchun qulay fursatni beradi. Baxshichilik va folklor chiqishlari esa tomoshaga kelganlarning ko‘nglini xushnud aylash bilan birga shodon raqslarga boshlasa, ajab emas. Shuningdek, sayillar davomida kurash va boshqa milliy sport turlari bo‘yicha musobaqalar ham o‘rin olgan. Bu esa sport ixlosmandlari, o‘zini sinab ko‘rishni xush ko‘ruvchilar uchun eng yaxshi imkon va sinov maydoni bo‘lishiga shubha yo‘q. Ayniqsa, yoshlar va bolalar uchun alohida madaniy dasturlar tashkil etilishi bayramni haqiqiy xalq sayliga aylantiradi.

Navro‘z — bu mehr-oqibat va bag‘rikenglik bayrami. Shu bois tadbirlar jarayonida nuroniylar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar holidan xabar olish, saxovat va xayriya aksiyalari o‘tkazish ham rejalashtirilgan. Bu esa bayramning ma’naviy mazmunini yanada boyitadi.

### YANGI O‘ZBEKISTONDA YANGI SHIJOAT

Termiz tumanidagi “Yangi O‘zbekiston” massivi amfiteatr maydonida o‘tkaziladigan bayram tadbirlari nafaqat ko‘ngilochar dasturlar, balki milliy birlik va hamjihatlik namunasiga aylanishi kutilmoqda. Surxondaryo ahli Navro‘zni yuksak kayfiyat, ezgu niyat va katta orzular bilan qarshi olish arafasida.

Zero, Navro‘z — bu yangi kun, yangi umid va yangi marralar sari dadil qadamdir. Surxondaryoda boshlangan tayyorgarlik jarayonlari esa ana shu ezgu ayyomni xalqimiz xotirasida unutilmas voqea sifatida muhrlashga xizmat qiladi.

**“Surxon tongi”**

NATIJA

## “OLATEMIR” OBOD BO‘LDI...MI?!

***2026-yil yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilinishi hududlarda amaliy ishlar, aniq natijalar va inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan tashabbuslarni yanada jadallashtirdi. Sho‘rchi tumanidagi “Olatemir” mahallasida amalga oshirilayotgan ishlar buning yaqqol namunasidir.***



### TASHABBUSLI BYUDJET — XALQ ROZILIGIGA XIZMAT QILMOQDA

Yurtimizda aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashda “Tashabbusli byudjet” dasturi muhim omilga aylanmoqda. Mazkur mexanizm orqali joylardagi dolzarb muammolar aholining bevosita takliflari asosida hal etilmoqda. Mahallada aholi tashabbusi va “Tashabbusli byudjet” dasturi asosida “Yalti” oilaviy shifokorlik punktining Olatemir filiali qurib bitkazildi. Endi fuqarolar tibbiy xizmat uchun uzoq masofaga bormasdan, o‘z mahallasida sifatli tibbiy ko‘rik va maslahat olish imkoniga ega bo‘lishmoqda.

— Ilgari kichik kasallik bilan ham qo‘shni “Yalti” mahallasiga yoki tuman markaziga borishimizga to‘g‘ri kelardi, — deydi Saltanat Safarova. — Ayniqsa, yoshi ulug‘lar va bolalar uchun bu ancha qiyinchilik tug‘dirardi. Yo‘l uzoq, transport masalasi esa doimo ham oson hal bo‘lmasdi. Ba’zan oddiy shamollash yoki qon bosimini tekshirtirish uchun ham ancha ovoragarchilikka duch kelardik. Endi esa yangi zamonaviy shifokorlik punkti ish boshladi. Shifokorlarimiz o‘z vaqtida qabul qilyapti, zarur tibbiy maslahat va muolajalarni shu yerning o‘zida olyapmiz. Ayniqsa, profilaktik ko‘riklar muntazam tashkil etilayotgani juda yaxshi bo‘ldi. Eng muhimi, sog‘ligimiz nazoratda.

Albatta, bu eng chekka hududlarida aholining hayot sifatini oshirish va ularning salomatligini mustahkamlash yo‘lida amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning amaliy ifodasidir. Eng muhimi, bunday ezgu tashabbuslar, avvalo, inson manfaatiga, aholi farovonligini ta’minlashga va sog‘lom jamiyat barpo etish maqsadlariga xizmat qiladi.

### TA’LIMGA E’TIBOR — KELAJAKKA SARMOYA

Mahalladagi 16-umumta’lim maktabi to‘liq ta’mirlandi. Sinfxonalar zamonaviy talablar asosida jihozlanib, o‘quvchilar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratildi.

— Ta’mirlash va zamonaviy jihozlash ishlaridan so‘ng o‘quvchilarimizda darslarga qiziqish yanada ortdi, — deydi maktab direktori Xursanoy G‘afforova. – Avvallari o‘quvchilarimiz 68-umumta’lim maktabida ikki smenada tahsil olishardi. Sinfxonalar yorug‘ va issiq, nazariy va amaliy laboratoriya darslari uchun ham jihozlar yangilandi. Bu, albatta, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilar ham yaratilgan sharoitlardan mamnun ekanliklarini ta’kidlashmoqda.

— Maktabimizda biz o‘quvchilar uchun barcha sharoitlar bor, — deydi o‘quvchi Nilufar Safarova — Sinfxonalarimiz zamonaviy jihozlangan, darslar qiziqarli va interfaol usullarda olib boriladi. Bu esa bilim olishga bo‘lgan qiziqishimizni yanada oshiradi. Maktabimizda turli to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Biz fan to‘garaklari, sport seksiyalari hamda ijodiy yo‘nalishlarda faolmiz. Har bir o‘quvchi o‘z qiziqishiga qarab to‘garak tanlay oladi. Bu esa iqtidorimizni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, yuqori natijalarga erishmoqchimiz.

### INFRATUZILMA YAXSHILANMOQDA

Mahalladagi yo‘llarga asfalt yotqizilgani aholi va avtomashinalar uchun qulay harakatlanish imkonini yaratmoqda. Shuningdek, tungi chiroqlar o‘rnatilib, ko‘chalar yoritildi. Endi mahalla ko‘chalari nafaqat obod, balki xavfsiz ham.

— Ilgari yomg‘ir yog‘ganida yo‘llardan yurish qiyin edi, — deydi O‘rol Pardayev — Hozir esa yo‘llar ravon, ko‘chalar yorug‘. Bolalarimiz ham bemalol o‘qishga, mashg‘ulotlarga qatnayapti.

### SUV — DAROMAD MANBAYI

Aholi tomorqalarini sug‘orish maqsadida beshta quduq qazildi. Bu orqali yerlardan samarali foydalanish imkoniyati kengaydi. Fuqarolar issiqxonadan samarali foydalanayotgani sababli sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish hajmi ortishi kutilmoqda.

— Quduqlar qazilgani tufayli tomorqamizdan unumli foydalanyapmiz, — deydi Nazira Qarshiyeva. — Ilgari suv tanqisligi sababli yerimizning hammasidan to‘liq foydalana olmasdik. Ayniqsa, yoz oylarida ekinlar suvsizlikdan qiynalar, hosil ham ko‘ngildagidek bo‘lmasdi. Endi esa suv masalasi ancha yengillashdi. Tomorqamizga o‘z vaqtida suv beryapmiz, sabzavot va poliz ekinlarini ko‘paytirdik. Ilgari faqat o‘z ehtiyojimiz uchun ekib kelgan bo‘lsak, hozir ortiqcha mahsulotni bozorga ham chiqaryapmiz. Bu oilaviy daromadimizga ham ijobiy ta’sir qilyapti.

Albatta, qishloqda yer va suv bor joyda baraka bo‘ladi, deyishadi. Bugun buni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘ryapmiz. Yaratilgan sharoitlar tufayli olatemirliklarning kelajakka bo‘lgan ishonchi mustahkamlanmoqda.

### INSON QADRI — USTUVOR MAQSAD

“Olatemir” mahallasida amalga oshirilayotgan ishlar — “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” doirasida belgilangan vazifalarning amaliy ifodasidir. Tibbiyot, ta’lim, infratuzilma va aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar mahalla ahlining turmush farovonligini oshirishga xizmat qilayotir.

**Nigina SHOYEVA**
jurnalist

DEPUTAT MINBARI

# TARAQQIYOT VA ADOLAT POYDEVORI

***Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida bosh mezon bitta: xalq manfaatlari ustuvor bo‘lishi shart. Bu tamoyil amalda ishlashi uchun esa ikki tayanch zarur — kuchli vakillik organi va hisobdor ijro hokimiyati. Ya’ni, kuchli Kengash va hisobdor hokim.***

**Sherpulat BOYQULOV,**
Xalq deputatlari
Surxondaryo viloyati
Kengashi kotibiyati mudiri

Ana shunda boshqaruv tizimi chin ma’noda xalq ishonchiga tayanadi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ayniqsa, Prezidentimiz tashabbuslari bilan davlat boshqaruvini ochiqlik, shaffoflik va javobgarlik tamoyillari asosida takomillashtirishga qaratildi. Endilikda rahbarlik — bu imtiyoz emas, mas’uliyatdir. Hokim — hudud rahbari, ammo u, eng avvalo, xalq oldida javob beruvchi shaxsdir.

Kuchli Kengash deganda biz faqat majlis o‘tkazadigan tuzilmani emas, balki hududdagi muammolarni chuqur o‘rganadigan, byudjet mablag‘larining sarfini qat’iy nazorat qiladigan, ijro hokimiyati faoliyatini tahlil etadigan va zarur bo‘lsa, keskin savol qo‘ya oladigan vakillik organini tushunamiz.

**KENGASH MUSTAQIL FIKR BILDIRISHI, TAKLIF VA TANQID QILISHDAN CHO‘CHIMAYDIGAN DARAJADA FAOL BO‘LISHI SHART.**

Hisobdor hokim esa shaffof ishlashi, har bir qarori yuzasidan asosli izoh bera olishi, xalq bilan ochiq muloqot olib borishi zarur. Hokimning kuchi ishonchda bo‘lishi kerak. Ishonch esa natija, halollik va ochiqlik bilan qozoniladi. Agar hokim o‘z faoliyatini Kengash oldida muntazam hisobot berish orqali olib borsa, qarorlar puxta muhokama qilinsa, hudud taraqqiyoti tezlashadi.

Bugun xalqning talabi o‘zgardi. Odamlar shunchaki va’dani emas, aniq natijani ko‘rishni istaydi. Yo‘llar ta’mirlanishi, ichimlik suvi muammosi hal etilishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi — bularning barchasi mahalliy boshqaruv samaradorligiga bog‘liq.

**AGAR KENGASH FAOL VA TALABCHAN BO‘LSA, HOKIM ESA INTIZOMLI VA MAS’ULIYATLI BO‘LSA, HUDUDDA ADOLAT VA TARAQQIYOT QAROR TOPADI.**

Kuchli Kengash — bu muvozanat. Hisobdor hokim — bu javobgarlik. Muvozanat va javobgarlik uyg‘unlashgan joyda esa korrupsiyaga o‘rin qolmaydi, byurokratiya qisqaradi, tashabbus va yangilikka yo‘l ochiladi. Eng muhimi, xalq davlat idoralariga ishonadi.

Mamlakatimizda davlat boshqaruvini takomillashtirish borasida boshlangan islohotlar bugun joylarda aniq natija bermoqda. Xususan, Surxondaryo viloyatida “Kuchli Kengash — hisobdor hokim” tamoyili amaliy mazmun kasb etib, hududiy boshqaruv tizimida yangicha ish uslubi shakllanmoqda. Viloyat xalq deputatlari Kengashi tomonidan hokimlik faoliyati ustidan nazorat mexanizmlari sezilarli darajada kuchaytirildi. Endilikda har bir muhim qaror, xususan, hududiy rivojlantirish dasturlari, byudjet mablag‘lari taqsimoti, investitsiya loyihalari va ijtimoiy soha masalalari Kengash sessiyalarida atroflicha muhokama qilinmoqda. Deputatlar nafaqat eshituvchi, balki tashabbus ko‘rsatuvchi va talab qo‘yuvchi kuchga aylanyapti.

So‘nggi sessiyalarda ichimlik suvi ta’minoti, yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, maktab va tibbiyot muassasalarini ta’mirlash, yangi ish o‘rinlari yaratish masalalari yuzasidan hokimlik mutasaddilarining hisobotlari eshitildi. Har bir hisobot aniq raqamlar, muddatlar va mas’ullar kesimida ko‘rib chiqilib, ijro intizomi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatildi. Bu esa qog‘ozdagi reja emas, amaldagi natijaga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, byudjet mablag‘larining maqsadli va shaffof sarflanishini ta’minlash borasida Kengash doimiy komissiyalarining o‘rni ortdi. Ochiq muhokamalar, joylarga chiqib o‘rganishlar, aholining murojaatlarini tahlil qilish orqali muammolar manzilli hal etilmoqda. Natijada, fuqarolarning Kengash va mahalliy hokimiyatga ishonchi mustahkamlanmoqda.

Viloyatda investorlar bilan ishlash, yangi sanoat loyihalarini ishga tushirish, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta’minlash borasida ham Kengash va hokimlik hamkorligi yangi bosqichga ko‘tarildi. Har bir loyiha ortida aniq ijtimoiy samara va yangi ish o‘rni turishi asosiy mezon sifatida belgilanmoqda.

Eng muhimi, bugun viloyatimizda hokimlik faoliyati yopiq eshiklar ortida emas, balki xalq vakillari — deputatlar ishtirokida ochiq muhokama qilinmoqda. Hisobot berish amaliyoti tizimli yo‘lga qo‘yildi. Tanqidiy ruh kuchaydi. Bu esa boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

“Kuchli Kengash – hisobdor hokim” tamoyili shunchaki shior emas, balki viloyatda amaliy boshqaruv modeli sifatida qaror topmoqda. Xalq nazorati bor joyda adolat qaror topadi. Surxondaryo bugun aynan shu tamoyil asosida yangi bosqichga qadam qo‘ymoqda.

**BUGUN BIZGA SHIOR EMAS, TIZIMLI ISHLAYDIGAN MEXANIZM KERAK. KUCHLI KENGASH HOKIMNI NAZORAT QILADI, HOKIM ESA HUDUDNI BOSHQARADI. IKKALASI HAM XALQ XIZMATIDA BO‘LSA — JAMIYAT YUTADI.**

Zero, adolatli boshqaruv — kuchli davlatning asosi. Kuchli Kengash va hisobdor hokim esa ana shu asosning mustahkam poydevoridir.

MUTAXASSIS NIMA DEYDI?!

# IJARA TIZIMIDA MOLIYAVIY RAG‘BAT

***O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish tizimida muhim o‘zgarishlar joriy etildi. Mazkur hujjat tadbirkorlikni rag‘batlantirish, bandlikni oshirish hamda bo‘sh turgan davlat obyektlaridan samarali foydalanishni ta’minlashga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.***

Farmonga ko‘ra, ijara shartnomasi tuzilgan kundan boshlab bir oy ichida yillik ijara to‘lovini amalga oshirgan ijarachilarga yillik summa miqdoridan Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida chegirma beriladi. Bu mexanizm, avvalo, halol va intizomli to‘lovchilarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Natijada tadbirkorlar uchun moliyaviy yuk kamayadi, davlat uchun esa to‘lov intizomi mustahkamlanadi. Shuningdek, olti oy davomida elektron onlayn auksion savdolarida ijaraga berilmagan obyektlarning boshlang‘ich narxi 50 foizga pasaytirilishi belgilandi. Bu esa uzoq muddat bo‘sh turgan bino va inshootlarni iqtisodiy aylanishga jalb qilish imkonini beradi.

Farmonda kasanachilik faoliyatini kengaytirayotgan tadbirkorlarga alohida e’tibor qaratilgan. Buning ortidan hududlarda, ayniqsa, xotin-qizlar va uy sharoitida ishlovchilar bandligini ta’minlashda muhim omil bo‘ladi.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan kamida 5 nafar ishsiz xotin-qizni ishga olgan tadbirkorlar ham davlat mulkini ijaraga olishda 50 foizlik imtiyozga ega bo‘ladi. Xuddi shuningdek, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan ishsiz yoshlarni ish bilan ta’minlagan subyektlarga ham ijara to‘lovlarida 50 foiz chegirma taqdim etiladi. Bu choralar ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni mehnat bozoriga faol jalb etishga xizmat qiladi.

Farmon nodavlat sport-ta’lim muassasalari uchun ham qulay sharoitlar yaratadi. Mahallalarda sport to‘garaklari tashkil etish uchun bo‘sh turgan davlat obyektlari eng kam ijara stavkasining yarmi miqdorida, auksionsiz ijaraga beriladi.

Bundan tashqari, Olimpiya, Paralimpiya, Osiyo va Paraosiyo o‘yinlari hamda nufuzli chempionatlarda so‘nggi besh yilda sovrindor bo‘lgan sportchi-trenerlarga, shuningdek, olis hududlarda faoliyat yuritayotgan trenerlarga ham xuddi shunday imtiyozlar taqdim etiladi. Bu esa professional sport tajribasini hududlarga olib kirish va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish imkonini beradi.



Moddiy madaniy meros obyektlarini investitsiya kiritish sharti bilan ijaraga olgan tadbirkorlar besh yil davomida ijara to‘lovining 80 foizidan ozod etiladi. Bu norma tarixiy obyektlarni saqlash va ulardan samarali foydalanish uchun xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilishda muhim rag‘bat bo‘ladi.

Shuningdek, bir yildan buyon sotilmagan yoki foydalanilmayotgan bino va inshootlar, jumladan, kasb-hunar kollejlari binolari “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi ishtirokchilariga minimal ijara stavkasi asosida beriladi. Bu tashabbus ishlab chiqarish va malaka oshirish jarayonlarini birlashtirgan amaliy monomarkazlar tashkil etishga zamin yaratadi.

Ushbu Farmon davlat mulkini boshqarish sohasida yangi yondashuvni namoyon etadi. Unda iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy mas’uliyat va bandlikni oshirish maqsadlari uyg‘unlashgan. Eng muhimi, hujjat bo‘sh turgan obyektlarni iqtisodiy aylanishga kiritish orqali hududlar rivojiga turtki beradi.

**Bekzod JUMAYEV,**
“Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish” AJ Surxondaryo viloyati hududiy vakili

AGROMASLAHAT

# HOSIL MO‘L BO‘LSIN DESANGIZ...

***Qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini oshirishda o‘tin va ko‘mir kulining ta’siri to‘g‘risida ayrim mutaxassislar salbiy fikrda. Aslida kulning ziroatchilikdagi ijobiy ahamiyati ilmiy asosda isbotlanganligi to‘g‘risida ma’lumotlar ham yo‘q emas. Shu sababli Qiziriq, Muzrabot, Bandixon tumanlarida kollektor bo‘yiga, tashlandiq yerlarga bir necha o‘n yillardan buyon chiqarib tashlangan yuzlab tonna kul uyumlarini ko‘rasiz. Vaholanki, oddiy g‘o‘zapoya kuli tarkibida 30-35 foizgacha “kaliy”, shuningdek, 22-25 foiz “kalsiy” elementlari mavjud.***

Ma’lumki, kaliy ekinlarning boshqa ozuqa elementlaridan ko‘proq samarali foydalanishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, o‘simliklarni kasalliklarga, “Garmsel” issig‘ida (ko‘pincha quyosh radiatsiyasiga) chidamliligini oshiradi, paxtadagi tola sifatini yaxshilaydi. Oxir-oqibat, tolaning shakllanishi davrida hujayralar bir tekis bo‘lib ko‘payadi. Yetarli darajada Kaliy bilan oziqlantirilgan g‘o‘zada gulning changlanishi yaxshi kechadi, bir chanoqdagi chigit soni ko‘proq va paxtaning salmog‘i kattaroq bo‘ladi. Eng muhimi, paxtaning erta pishishini ta’minlaydi.



Kalsiy tuproq singdirish kompleksiga kiruvchi asosiy element bo‘lib, tuproqning donadorligini oshiradi. Kalsiy tuproqda yetarli bo‘lganida, uning havo almashinuvi, suv o‘tkazish qobiliyati yaxshilanadi va bunday tuproqlarning haydov qatlamida foydali mikroorganizmlar tez ko‘payib yaxshi rivojlanadi.

Yuqoridagilarga qaramasdan, dehqonlarimiz kuldan yetarli darajada foydalanmayapti. Agarda xonadonlardagi kulni tashqariga chiqarib tashlamasdan, aksincha, tovuqxonalarning bir burchagiga to‘kib borish, mollarining tagiga (vaqti-vaqti bilan) to‘kib qo‘yish parranda va mollardagi hayvon bitlariga qiron keltiradi. Shuningdek, chirimagan go‘ng uyumlariga aralashtirib saqlash yil bo‘yi ularda ko‘payadigan turli xil zararli zamburug‘lar va mikroblarning ko‘payib ketishi, ularning kelajakda ekinlarga zarar berishining oldini oladi. Chunki, kuldagi kaliy va kalsiy elementi ularda ishqorli muhit yaratadi. Keyingi yillarda birgina viloyatda emas, hatto respublikamizda kaliyli o‘g‘itlar tanqisligi sezilmoqda, chunki bu turdagi o‘g‘it viloyatga chetdan keltiriladi. Aslida g‘o‘zaga mineral o‘g‘it 1 0,7: 0,5 nisbatda beriladi, bu nisbatda berilgan NPK nisbati o‘g‘itning o‘zaro samarasini oshiradi, o‘simlik tomonidan yaxshi o‘zlashtiriladi.

Agar kul go‘ng va boshqa organik qoldiqlar bilan birga qo‘shib ishlatilsa, kaliyli o‘g‘itlarga hojat qolmaydi. Ekinning 35-50 foizini kaliy elementi tashkil etishi shart. Bahor seryog‘in kelgan hollarda chigitni ekishdan oldin namlab, urug‘lik bilan aralashtirib ekilsa, urug‘ning kasallanishini va zararkunandalar ta’sirida zararlanishining oldi olinishi bilan birga nihollarni tez unib chiqishi va barvaqt rivojlanishini ta’minlaydi. Kuldan foydalanish ancha qulay, arzon va naqadar foydali ekanligini dehqonlarimiz bilishi lozim.

Shuningdek, gultugunchalarini ko‘plab to‘kadigan mevalar, ayniqsa, anor, o‘rik va boshqa danakli, urug‘li mevali daraxtlar tagiga ko‘proq kul bilan go‘ng aralashmasini solish, ularning hosilini ko‘paytirishda katta imkoniyat yaratadi. Mineral o‘g‘itlar tarkibida, ya’ni me’yorida kaliy ishlatilayotganligi oqibatida nomutanosiblik yuzaga kelishi natijasida ekinlar hosildorligi pasayib, sifati yomonlashib, tuproq eritmasining agro ekologik holati buzilib (pasayib) bormoqda. Yuqorida ko‘rsatilgan omillar (sabablar) hisobga olinsa, qishloq xo‘jaligida, ya’ni dehqonchilikda kuldan unumli foydalanish qanchalik foydali ekanligi ma’lum bo‘ladi.

**B.JO‘RAYEV,**
Fan va texnika sohasidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi davlat mukofoti laureati, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan paxtakor, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, Ingichka tolali paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti direktorining ilm-fan va ilmiy faoliyat bo‘yicha maslahatchisi
**X.JUMAYEV,**
olim-agronom, mutaxassis
**J.JO‘RAYEV,**
ilmiy xodim, mustaqil izlanuvchi

DOLZARB MAVZU

# SHAXSIY TANLOVMI YOKI IJTIMOIY MAS’ULIYAT?

***Oila — ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy tarbiya va kelajak avlodni shakllantiruvchi eng muhim institutdir. Shu bois, yoshlarning oila qurishga bo‘lgan yondashuvi nafaqat shaxsiy masala, balki jamiyat miqyosidagi dolzarb ijtimoiy masaladir.***

So‘nggi yillarda ayrim yoshlar tomonidan shoshmashosharlik bilan, yetarli tayyorgarliksiz oila qurish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa turli ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Avvalo, oilaviy hayotga tayyor emaslik mas’uliyatni to‘liq anglamaslikda namoyon bo‘ladi. Oila qurish — huquqiy, ma’naviy va iqtisodiy majburiyatlarni zimmasiga olish demakdir. Yetuk fikrlash shakllanmagan, murosa madaniyati rivojlanmagan yoshlar oilaviy kelishmovchiliklarni to‘g‘ri va oqilona hal eta olmaydi. Natijada, oilada nizolar ko‘payib, ajrimlar sonining ortishiga sabab bo‘ladi. Ajrimlar esa, o‘z navbatida, bolalar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, jamiyatda ijtimoiy beqarorlik omillarini kuchaytiradi.

Ruhiy yetuklik oilaviy barqarorlikning muhim omilidir. Mutaxassislar ta’kidlashicha, oila qurayotgan shaxslar o‘z hissiyotlarini boshqara olishi, qarorlarni oqilona qabul qilishi hamda stresli vaziyatlarda muvozanatni saqlashi zarur. Aks holda, kundalik hayotdagi oddiy muammolar ham jiddiy ziddiyatlarga aylanib ketadi. Bu esa yosh oilaning mustahkamligiga putur yetkazadi.

Iqtisodiy tayyorgarlik ham muhim mezonlardan biridir. Barqaror daromad manbayining mavjudligi, aniq reja va maqsadlarning belgilanganligi oilada osoyishtalikni ta’minlaydi. Aksincha, moliyaviy qiyinchiliklar sababli yuzaga keladigan tortishuvlar er-xotin o‘rtasidagi ishonch va hurmatni susaytiradi. Shuning uchun yoshlarni kasb-hunar egallashga, mustaqil hayot ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Mutaxassislar fikricha, oilaga tayyorgarlik masalasi faqat ikki yoshning shaxsiy ishi emas. Bu jarayonda ota-onalar, ta’lim muassasalari hamda keng jamoatchilik ham faol ishtirok etishi zarur. Oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilish, yoshlar bilan ochiq va samimiy muloqot o‘tkazish, psixologik hamda huquqiy maslahat xizmatlarini kengaytirish orqali ko‘plab muammolarning oldini olish mumkin.

**Mohira AVALOVA,**
Sho‘rchi tuman FHDY bo‘limi 1-toifali inspektori

ILM-FAN



# IXTIROLAR TARIXIGA BIR NAZAR

**Kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan buyon ko‘plab ixtirolar qilindi. Sharq xalqlari bu borada birinchilardan edi. Ushbu ixtiro va kashfiyotlardan davrlar mobaynida insonlar foydalanib, ularni takomillashtirib keldi.**

Mesopotamiya insoniyat tarixidagi qadimiy sivilizatsiyalardan biri bo‘lib, u hozirgi Iroq hududida, Dajla va Frot daryolari oralig‘ida joylashgan. Bu hudud sivilizatsiya beshiklaridan biridir. Shu sababli, bu yerda ilk shaharlar, yozuv va davlat boshqaruv tizimlari shakllangan. Shummerlar Mesopotamiyaning janubida yashagan qadimiy xalq bo‘lib, ular ko‘plab ixtirolari bilan insoniyat tarixiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ularning yaratuvchanligi va ilmga bo‘lgan qiziqishi tufayli Mesopotamiya butun sharq madaniyatining markaziga aylangan. Misol uchun, yozuvning kashf etilishi shummerlarga borib taqaladi. Ular gil plastinkalarga maxsus tayoqcha bilan belgi bosish orqali fikrlarini ifoda etgan. Bu yozuv klin yozuvi yoki kuneiform deb atalgan. Shu yordamida qonunlarni, hisob-kitoblarni, tarixiy voqealarni yozib qoldirgan.

Shummerlar oy va quyosh harakatini ham kuzatib, alohida kalendarlar ham yaratgan. Unda oy kalendari (354 kun) va quyosh kalendari (365 kun) orasida 11 kun farq bo‘lgan. Shuningdek, ular 60 asosli son tizimini ham yaratishgan. Hozirgi kunda 1 daqiqa — 60 soniya, 1 soat — 60 daqiqa bo‘lishi ham shummerlar tizimidan olingan.

Mesopotamiya aholisi arifmetikaning 4 qoidasi, bo‘lishlar, algebraik tenglamani kvadrat va kub darajasiga ko‘tarib, ildiz chiqarishni bilgan. Geometriyada esa aylana uzunligi, maydoni, kesik piramida hajmi, to‘g‘ri burchakli uchburchakning tomonlari o‘rtasidagi nisbatdan xabardor bo‘lishgan. Uzunlik va og‘irlik o‘lchov birliklarini ham ishlab chiqdi. Astronomiyada ham ko‘p narsalarni: quyosh va oy tutilishi, kometa, meteorlarning paydo bo‘lishi, zilzila sodir bo‘lishini oldindan bilishgan. Shummerlar jamiyatda tartib o‘rnatish uchun qonunlar yaratishgan. Ur-Nammu va Xammurapi qonunlari adolat, tenglik va tinchlikni ta’minlashga xizmat qilgan.

Shummerlar pishiq g‘ishtdan uylar, ibodatxonalar qurgan. Ular g‘ildirak va aravachalardan foydalangan va shaharlararo savdoni ham rivojlantirgan. Shummerlarning yozuvi, kalendari, sug‘orish tizimi, qonunlari, transport va musiqa ixtirolari bugungi kunda ham qadrlanadi.

**Marg‘iyona ABDIYEVA,**
Termiz davlat universiteti talabasi

IFTIXOR

***Har bir tinch tong, har bir osoyishta xonadon ortida fidoyi insonlarning mashaqqatli mehnati, jasorati va yuksak mas’uliyati mujassam. Favqulodda vaziyatlar tizimi xodimlari ana shunday sharafli va mas’uliyatli burchni sidqidildan ado etib, inson hayoti va salomatligini eng oliy qadriyat deb bilgan holda xizmat qilmoqda.***

# YUKSALISH SARI DADIL QADAMLAR...










Ayniqsa, Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi jamoasining so‘nggi yillardagi sa’y-harakatlari nafaqat tizimdagi tub islohotlar, balki yuksak vatanparvarlik va fidoyilik namunasi sifatida e’tirofga loyiq.

Boshqarma tomonidan o‘tgan davr mobaynida aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish, xavfsizlikni ta’minlash, profilaktika ishlarini kuchaytirish va tizimni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish borasida keng ko‘lamli va aniq reja asosida ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda sohani tubdan isloh qilishga qaratilgan huquqiy hujjatlar, xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktyabrdagi “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi farmoni hamda bir qator qarorlari sohada mutlaqo yangi boshqaruv tizimini shakllantirish, profilaktik yondashuvni kuchaytirish, raqamlashtirish va ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi.

Mazkur hujjatlar ijrosini ta’minlash maqsadida viloyat miqyosida tashkiliy-tuzilmaviy ishlar amalga oshirildi. Ilgari tizimda 71 nafar inspektor faoliyat yuritgan bo‘lsa, shtat birliklari qayta ko‘rib chiqilib, har 4 ta mahallaga bir nafardan inspektor biriktirish amaliyoti joriy etildi. Bu esa profilaktika ishlarini bevosita aholi ichida, manzilli va tizimli tashkil etish imkonini berdi. Barcha hududlarda mahalla FVB inspektori xonalari tashkil qilinib, aholi murojaatlarini joyida hal etish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. “Mahallabay” va “xonadonbay” ishlash tizimi asosida har bir xonadonda yong‘in xavfsizligi, isitish moslamalari, gaz va elektr jihozlaridan foydalanish holati o‘rganilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan amaliy choralar ko‘rildi. Ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda evakuatsiya mashqlari, profilaktik uchrashuvlar va tushuntirish ishlari muntazam ravishda o‘tkazildi.

Inspektorlar va qutqaruvchilar uchun malaka oshirish kurslari, maxsus tayyorgarlik mashg‘ulotlari, amaliy-taktik o‘quv mashqlari tashkil etildi. Qutqaruvchilarning favqulodda vaziyatlarda harakat qilish algoritmlari takomillashtirildi, zamonaviy qutqaruv uskunalaridan foydalanish ko‘nikmalari mustahkamlandi.

Shuningdek, sohada raqamli texnologiyalarni joriy etish, ma’lumotlar bazasini shakllantirish va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi.

Moddiy-texnik bazani mustahkamlash yo‘nalishida ham salmoqli ishlar qilindi. Sariosiyo va Qiziriq tumanlaridagi kasbiylashtirilgan qutqaruv qismlari to‘liq ta’mirlanib, zamonaviy talablar asosida qayta jihozlandi. 5 ta yangi jihozlangan maxsus yong‘in o‘chirish avtomashinalari, qutqaruv texnikalari, aloqa vositalari va maxsus himoya anjomlari keltirildi. Bu yangilanishlar hududlarga tezkor yetib borish, insonlar hayotini saqlab qolish va moddiy zararni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Amaliy xizmat faoliyati davomida viloyat qutqaruvchilari Boysun tumanidagi “Mustaqillikning 25-yilligi” gaz konida yuz bergan avariya holatlarida faol ishtirok etib, vaziyatni barqarorlashtirish va xavfli omillarni bartaraf etish ishlarida yuksak kasbiy mahorat namoyon etdilar. Shuningdek, hududda sodir bo‘lgan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, yong‘inlar va yirik o‘rmon yong‘inlarini bartaraf etishda qutqaruvchilarning fidoyiligi, jasorati va uyushqoqligi alohida e’tirofga loyiq.

Tezkor harakatlar va muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar natijasida favqulodda vaziyatlarning oldi olinib, aholi xavfsizligi ta’minlanib kelinmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy himoya va rag‘batlantirish yo‘nalishida ham muhim choralar ko‘rildi. Tizimda xizmat qilayotgan 16 nafar harbiy xizmatchiga boshlang‘ich to‘lovsiz imtiyozli uy-joylar ajratildi. Bu esa xodimlarning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlash, ularning xizmatga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarning 10 nafar farzandlariga oliy ta’lim muassasalariga kirishda belgilangan imtiyozlar berilishi tizim xodimlariga nisbatan g‘amxo‘rlik ifodasidir.

Jismoniy tayyorgarlik va sport sohasida ham yuqori natijalarga erishildi. Viloyat FVB qutqaruvchi-sportchilari respublika va jahon miqyosida o‘tkazilgan musobaqalarda ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritdilar. Xususan, Yong‘in-qutqaruv amaliy sporti bo‘yicha Saudiya Arabistonida o‘tkazilgan musobaqada Termiz shahridagi 1-qutqaruv qismi harbiy xizmatchisi B.Toshmurodov O‘zbekiston jamoasi tarkibida ishtirok etib, 2-o‘rinni egalladi. Qutqaruv qism harbiy xizmatchilari A.Choriyev, J.Yo‘ldoshev, A.Ashurov sportning Universal jang turi bo‘yicha O‘zbekiston, Osiyo va Jahon chempioni bo‘ldi. Bu natijalar FVB qutqaruvchilarning jismoniy tayyorgarligi, irodasi va intizomi yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar sohada mutlaqo yangi yondashuvni shakllantirdi. Profilaktika tizimi kuchaytirildi, moddiy-texnik baza mustahkamlandi, kadrlar salohiyati oshirildi va ijtimoiy himoya choralari kengaytirildi. Bu esa aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilishda mustahkam asos yaratdi.

Favqulodda vaziyatlar tizimi xodimlari bor ekan, xalqimizning ertangi kunga ishonchi mustahkam, osmonimiz musaffo, xonadonlarimiz tinch va osoyishta bo‘ladi.

**Zulfiya SOHIBOVA,**
viloyat FVB axborot va jamoatchilik bilan aloqalar xizmati yetakchi mutaxassisi

## QUTQARUVCHILAR

*Otash-olovlarga kirgan*
*ham Sizsiz,*
*Uyqusiz, beorom yurgan*
*ham Sizsiz,*
*Xalq uchun jonni ham*
*nisor qilgaysiz,*
*Fidoyi, tayanchim –*
*qutqaruvchilar!*

*Kim aytar: o‘rmonda*
*o‘g‘lim adashdi,*
*Birov yo‘l yo‘qotar*
*sahroyi dashtda*
*Qiynalsangiz deysiz:*
*“bu kasbim gashti”*
*Malhamim, suyanchim –*
*qutqaruvchilar!*

*Sho‘ng‘ib chiqib deysiz*
*topdim, topildi*
*Yangi xabar kelar:*
*“liftlar yopildi”.*
*Muammoni yechib*
*shod etib dilni*
*Orzum, osmonim –*
*qutqaruvchilar!*

*Ko‘plar duo qilar,*
*“otangga rahmat”*
*Keksalar tilaydi*
*umr va omad,*
*Oldini olarsiz bo‘lmas*
*nadomat*
*Tuganmas dostonim –*
*qutqaruvchilar!*

***Faxriddin BADALOV,***
*viloyat FVB xodimi,*
*podpolkovnik*

IJTIMOIY HIMOYA

***Har bir inson umrining ma’lum bir bosqichida tinch va farovon keksalik gashtini surishni orzu qiladi. Pensiya esa ana shu davrdagi asosiy daromad manbayi sifatida hayotiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois pensiya masalasini faqat yosh ulg‘ayganda emas, balki mehnat faoliyatining ilk kunlaridanoq o‘ylash muhimdir.***

# MENING PENSIYAM QANCHA?




Amaldagi tartibga ko‘ra, erkaklar 60 yoshida kamida 25 yil, ayollar esa 55 yoshida kamida 20 yil ish stajiga ega bo‘lsa, yoshga doir to‘liq pensiya olish huquqiga ega bo‘ladi. Kamida 7 yil ish stajiga ega shaxslarga esa to‘liqsiz pensiya tayinlanadi.

Ayollar uchun alohida imtiyoz ham mavjud: agar rasmiy ish staji 20 yilni tashkil etsa, 54 yoshdan pensiyaga chiqa oladi. Bunda harbiy xizmat, oliygohning kunduzgi bo‘limida o‘qish hamda bola parvarishi ta’tili (har bir bola uchun 3 yil, jami 6 yilgacha) davrlari ham umumiy stajga qo‘shiladi.

Pensiya tayinlashda faqat rasmiy ishlagan va ish haqi hisoblangan davrlar inobatga olinadi. Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkor, o‘zini-o‘zi band qilgan yoki xorijda ishlagan shaxs sifatida Pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy soliq to‘langan davrlar ham ish stajiga qo‘shiladi. Demak, norasmiy mehnat — kelajakdagi pensiyaning kamayishi demakdir.

Pensiya miqdori fuqaroning rasmiy ish staji va ish haqi (daromadi)ga bog‘liq. Qanchalik uzoq va yuqori rasmiy daromad bilan ishlansa, shuncha ko‘proq pensiya shakllanadi. Aksincha, “konvertdagi ish haqi” yoki norasmiy faoliyat kelajakda past miqdordagi pensiyaga sabab bo‘lishi mumkin. Ko‘plab fuqarolar pensiya tayinlangach, uning kamligidan shikoyat qiladi. Bunday holatlarning oldini olish uchun pensiyaga tayyorgarlik zarur.

Pensiya — bu tasodif emas, balki yillar davomida shakllanadigan huquqdir. Zero, har bir rasmiy ish kuni, har bir to‘langan ijtimoiy soliq kelajakdagi barqaror daromadingiz uchun poydevor vazifasini o‘taydi.

**Yuliya ISRAILOVA,**
viloyat byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassisi

EHTIYOT BO‘LING!

# ADASHTIRUVCHI O‘SIMLIK...

***Dunyo bo‘yicha olimlar tomonidan 100 mingga yaqin zamburug‘lar turi aniqlangan bo‘lsa, shundan 200 ga yaqin botanik turi yurtimizda uchraydi. Ayni botanik turlardan 25 tasinigina iste’mol qilsa bo‘ladi. Qolgan turlari o‘zida har xil zaharli moddalar saqlaganligi sababli iste’mol qilinmaydi.***



Qo‘ziqorinlarni bir-biridan ajratish qiyin. Ba’zida mutaxassislar ham adashishi mumkin. Iste’mol qilsa bo‘ladigan qo‘ziqorinlar ham joylashgan joyiga qarab zaharli qo‘ziqorinlarga aylanishi mumkin. Qo‘ziqorinlar atmosfera havosidagi, tuproqdagi zaharli moddalarni o‘ziga shimib olish xususiyatiga ega bo‘ladi.

Zamburug‘dan zaharlanish holatlari asosan yilning mart, aprel va may oylarida ko‘proq uchraydi. Zamburug‘dan zaharlanish alomatlari zamburug‘larning turlariga qarab turlicha namoyon bo‘ladi. Aksariyat hollarda iste’mol qilingandan keyin 1-2 soat o‘tib, belgilar namoyon bo‘ladi. Dastlab, ko‘ngil aynib, tez-tez qayt qilish, oshqozon hazm traktining buzilishi, ko‘p terlash, alahsirash, titrash, ko‘zning yoshlanishi, ko‘z qorachiqlarining kengayishi kuzatiladi.

Yuqoridagi kabi belgilar kuzatilganda zudlik bilan yaqinda joylashgan shifoxonaga murojaat qilish lozim. Shifokorlar tomonidan vaqtida ko‘rsatilgan tibbiy muolajalardan keyin aksariyat bemorlar 1-2 kunda sog‘ayib ketadi. Lekin vaqtida tibbiyot xodimlariga murojat qilinmasa, og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

**N.IBRAGIMOV,**
Viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi ovqatlanish gigiyenasi bo‘limi mudiri

# SHIORDAN HAYOTGA KO‘CHGAN TASHABBUS

TA’LIM VA TARAQQIYOT




***“Sog‘ tanda sog‘lom aql” degan naql xalqimiz tafakkurida chuqur ildiz otgan hikmatdir. Unda insonning jismoniy baquvvatligi, ruhiy barqarorligi va fikriy salomatligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik mujassam. Tan sog‘lom bo‘lsa, tafakkur tiniq bo‘ladi, qalbda shukronalik, qarashlarda ijobiylik paydo bo‘ladi.***



Bugungi O‘zbekiston sharoitida ushbu hikmat o‘zining eng yorqin ifodasini Prezidentimizning beshta muhim tashabbusi orqali topdi. Mazkur tashabbuslar yoshlar hayotiga mazmun, ma’naviyat va sog‘lomlik olib kirib, ularni Vatanga sadoqatli, shukronalik tuyg‘usiga boy insonlar etib tarbiyalashni maqsad qilgan. Termiz davlat universiteti jamoasi ham ushbu tashabbuslar ijrosini ta’minlash maqsadida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqda. Shular qatorida yoshlarning musiqa, adabiyot, teatr va san’atga qiziqishini oshirish maqsadida universitetda “Iqtidorli talabalar haftaligi”, “Yosh ijodkorlar klubi” va “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Talabalar teatr studiyasi, raqs va vokal to‘garaklari faoliyat yuritmoqda hamda fakultetlarda she’riyat kechalari, adabiy uchrashuvlar, san’at namoyishlari muntazam tashkil etilib, iqtidorli yoshlar rag‘batlantirilmoqda.

Yoshlarni sportga jalb etish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish borasida quydagi ishlar amalga oshirilmoqda. Universitetda “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalari yo‘lga qo‘yilgan. Mini-futbol, voleybol, stol tennisi, shaxmat-shashka, yengil atletika bo‘yicha musobaqalar o‘tkazilib, g‘oliblar diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanib kelmoqda. Talabalar turarjoylarida sport maydonchalari va jihozlar yangilanib, fakultetlar o‘rtasida “Sog‘lom hayot sari” shiori ostida yugurish aksiyalari tashkil etildi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini oshirish uchun oliygohda zamonaviy kompyuter sinflari, Axborot texnologiyalari markazi va media studiya faoliyat yuritmoqda. Talabalar uchun “Raqamli tafakkur”, “IT-ko‘nikmalar haftaligi”, “Start-up” tanlovlari tashkil etildi, dars jarayonlariga onlayn platformalar joriy etilgan hamda yoshlar o‘rtasida raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha mahorat darslari o‘tkazilmoqda.

Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida universitet kutubxonasida “Yosh kitobxon” loyihasi doirasida yangi badiiy va ilmiy adabiyotlar targ‘ib qilinmoqda. “Bir oy — bir kitob” aksiyasi, kitob yarmarkalari, yozuvchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Kutubxona fondi yangilanib, talabalar uchun elektron kutubxona tizimi ishga tushirildi. Har bir fakultetda “Kitobsevar talabalar” burchaklari tashkil etilgan.

Ayollar bandligini ta’minlash va kasb-hunarga o‘rgatishda ham keng qamrovli ishlar olib borildi. Talaba-qizlarning bandligini ta’minlash maqsadida “Ayollar klubi”, “Kasb-hunar markazi” faoliyat yuritmoqda. Tikuvchilik, pazandachilik, dizayn, kompyuter savodxonligi bo‘yicha to‘garaklar tashkil etildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun “Mentorlik dasturi” yo‘lga qo‘yilishi bilan birgalikda faol qizlar uchun Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, Termiz davlat universitetida “Besh muhim tashabbus” loyihasi doirasida olib borilayotgan keng qamrovli ishlar yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishiga, ularning iqtidor va salohiyatini to‘liq namoyon etishiga xizmat qilmoqda. Har bir tashabbus yo‘nalishida amalga oshirilayotgan amaliy ishlar natijasida talabalar o‘rtasida ijtimoiy faollik, ma’naviy madaniyat, jismoniy sog‘lomlik va kasbiy tayyorgarlik sezilarli darajada oshdi.

Kelgusida universitet rahbariyati va yoshlar tashkilotlari “Besh muhim tashabbus” doirasida yangi innovatsion loyihalarni joriy etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarni davom ettirishni rejalashtirmoqda.

Bugungi O‘zbekiston yoshlari sog‘lom tana, sog‘lom tafakkur va shukronalik ruhida voyaga yetmoqda. “Sog‘ tanda sog‘lom aql” hikmati endi nafaqat tillarda, balki hayot mezoniga aylangan.

**Xabib YARASHEV,**
Termiz davlat universiteti talabasi

Denov tumanida faoliyat yuritayotgan “ULUG‘BEK LIZING” xususiy korxonasiga tegishli muhr va tamg‘a yo‘qolganligi **MA’LUM QILINADI.**

Denov tumanida faoliyat yuritayotgan “ZAHARTEPA” fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organiga tegishli muhr va tamg‘a yo‘qolganligi **MA’LUM QILINADI.**

Denov tumanida faoliyat yuritayotgan YTT NAMAZOVA FAZILAT IMAMOVNAga tegishli muhr va tamg‘a yo‘qolganligi **MA’LUM QILINADI.**

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИ:

## ИШ ИЗЛОВЧИДАН — ҚИЙМАТ ЯРАТУВЧИГА ТРАНСФОРМАЦИЯ

ISLOHOTLAR SAMARASI



**Азизбек ХАСАНОВ,**
Термиз давлат педагогика институти ректори, педагогика фанлари доктори, профессор

**Бугунги кунда Ўзбекистонда ёшлар бандлигини таъминлаш ва уларнинг интеллектуал салоҳиятини рўёбга чиқариш давлат сиёсатининг энг устувор йўналишига айланди. Президентимиз томонидан Кўксаройда ўтказилган ёшлар билан очиқ мулоқотда белгиланган вазифалар нафақат пойтахтда, балки чекка ҳудудлардаги олий таълим муассасаларида ҳам реал амалиётга кўчмоқда. Бунинг амалий ифодасини Термиз давлат педагогика институти мисолида кўришимиз мумкин.**



### ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИЯ ИНТЕГРАЦИЯСИ

Президентимиз томонидан илгари сурилган "Университет — инновация ва тадбиркорлик хаби" ғояси бугун Термиз давлат педагогика институти фаолиятининг асосий мезонидир. **2026-2027 йилларга мўлжалланган "Йўл харитаси" доирасида институтда таълим сифатини халқаро тажриба асосида трансформация қилиш бўйича кенг кўламли ишлар бошланган.** Хусусан, 2026 йил февраль ойидаги давлатимиз раҳбари қарорлари ижросини таъминлаш мақсадида институтда Стартап экотизими йўлга қўйилди. Бу шунчаки назарий билим эмас, балки талабаларни реал бозор шароитига тайёрлашнинг замонавий механизмидир. Шу боис ҳам университетда бир қатор янги лойиҳа ишланмалари бўйича иш олиб борилаётир. Жумладан, "Ёш муҳандис" илмий-тадқиқот лойиҳалаштириш марказини ташкил этиш лойиҳаси Тасвирий санъат кафедраси мудири Фахриддин Тошпўлатов томонидан тақдим этилган бўлиб, унда "Ёш муҳандис" илмий-тадқиқот лойиҳалаштириш марказини ташкил этиш орқали ёшларнинг муҳандислик, техник ва ижодий салоҳиятини ривожлантириш асосий мақсад қилинган. Шунингдек, инклюзив таълим ўқувчилари учун "Power band" ва магнитли ручка лойиҳасини тақдим этаётган Бошланғич таълим кафедраси ўқитувчиси Ситора Алимарданова ҳам нуқсони бор болаларда ёзиш кўникмасини шакллантириш мақсадида махсус ишлаб чиқилган "Power band" ва магнитли ручкани яратиш кўзда тутилган. Мазкур мосламалар болаларнинг қўл мушакларини тўғри ишлашига ёрдам беради, ёзиш жараёнидаги қийинчиликларни камайтиради ҳамда ёзишга бўлган қизиқишни оширади. Лойиҳа инклюзив таълим самарадорлигини



оширишга хизмат қилиб, ижтимоий аҳамиятга эга инновацион ечим ҳисобланади. Институт докторанти Ситора Алимарданова "Академик ҳаракатчанлик" дастурида инклюзив таълимга оид ишланмаси билан қатнашиб, 54 миллион сўмлик лойиҳа ғолибаси бўлганлигини фахр билан эътироф этиш мумкин. Шунингдек, Табиий ва аниқ фанлар факультети биология таълим йўналиши талабаси Феруза Тўхтамуродова томонидан тақдим этилган "Чаёнларни лаборатория шароитида боқиш, кўпайтириш ва улардан заҳар олиш" лойиҳаси чаёнларни сунъий муҳитда боқиш ва кўпайтириш ҳамда улардан заҳар олиш технологиясини ишлаб чиқишга қаратилган. Лойиҳанинг асосий мақсади чаён заҳрининг биологик ва тиббий хусусиятларини ўрганиш, фармацевтика ва тиббиёт соҳаларида фойдаланиш имкониятларини кенгайтиришдан иборат. Ушбу лойиҳа илмий тадқиқотлар билан бир қаторда иқтисодий ва амалий аҳамиятга ҳам эга бўлиб, маҳаллий шароитда биологик маҳсулотлар етиштириш имконини яратади.




### "СТАРТАП ГАРАЖ"ДАН "ВЕНЧУР ФОНДЛАР"ГАЧА

Ёшларни иш берувчига айлантириш йўлида Термиз давлат педагогика институти Сурхондарё вилояти ҳокимлиги билан ҳамкорликда бир қатор тизимли босқичларни амалга оширмоқда. **Талаба ва ёш тадқиқотчиларнинг инновацион ғоялари ягона базага жамланиб, "Алоқа венчур", "Ёшлар венчур" каби фондлар ҳамда "Стартап гараж" билан доимий алоқа ўрнатилди. Бу эса ёшларга 10 миллиард сўмгача кредит ва инвестиция жалб қилиш имконини беради.** Қолаверса, IT Park Термиз ва Термиз ёшлар Технопарки билан ҳамкорликда ўтказилаётган тарғибот тадбирлари талабаларга бизнес-инкубация ва акселерация дастурлари ҳақида тушунча берилмоқда.




### "МЕНИНГ БИРИНЧИ КАСБИМ" ВА КЕЛАЖАК ИСТИҚБОЛЛАРИ

Президентимиз таъкидлаганидек,



2030 йилгача меҳнат бозорига 1 миллион нафар ёш кириб келади. Ушбу демографик ўсишни иқтисодий драйверга айлантириш учун Термиз давлат педагогика институти каби олийгоҳларда талабаларни нафақат дипломли мутахассис, балки "қиймат яратувчи" шахс сифатида тарбиялашга эътибор қаратилмоқда.

"Менинг биринчи касбим" дастури доирасидаги стажировка тизими талабаларнинг амалий тажриба етишмаслиги билан боғлиқ муаммоларини ҳал этишга хизмат қилади.



Термиз давлат педагогика институтида олиб борилаётган ислоҳотлар шуни кўрсатадики, бугунги ёшлар фақат иш ўрни кутиб ўтирувчилар эмас, балки ўз ғоялари билан янги иш ўринлари яратувчи кучга айланмоқда. Бу — Янги Ўзбекистон тараққиётининг энг мустаҳкам пойдеворидир. Олтмиш мингдан зиёд ёшлар вакиллари иштирок этган Президентимиз билан мулоқот юртимизда ўсиб келаётган ёш авлод вакилларини ҳар томонлама баркамол инсонлар этиб тарбиялаш, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш, қобилияти ва салоҳиятини рўёбга чиқаришга қаратилган давлат сиёсатининг амалий ифодасидир. Олийгоҳни тамомлаган 2 200 нафар битирувчидан 2 024 нафарининг бандлиги таъминланганини ҳам улкан ютуқ дейиш мумкин. "Келажакка қадам" дастури доирасида 35 та лойиҳа молиялаштирилиб, 661 нафар ижтимоий кўмакка муҳтож, етим ва ногирон талабалар моддий рағбатлантирилди.

**"Келажак тадбиркори" дастури доирасида ўзини ўзи банд қилган ёшларга гаровсиз 20 миллион сўмгача кредит ажратилиши кўплаб ёшлар учун илк иқтисодий имконият эшигини очади.** Бу маблағ орқали ҳунармандчилик, хизмат кўрсатиш, IT ва кичик ишлаб чиқариш каби йўналишларда фаолият бошлаш имконияти кенгаяди. Энг муҳими, гаров талаб қилинмаслиги ёшларнинг молиявий тўсиқларини камайтиради. Тадбиркорлик кўникмасига эга бўлиб, ўз бизнесини бошлаётган ёшларга 300 миллион сўмгача кредит берилиши эса стартап ташаббусларни реал лойиҳага айлантиришга хизмат қилади. Бу ёшларнинг фақат иш изловчи эмас, балки иш ўринлари яратувчи кучга айланишини таъминлайди. Айниқса, камида 5 нафар битирувчини ишга олган тадбиркорларга 10 миллиард сўмгача кредит берилиши — ёшлар бандлигини таъминлашга қаратилган стратегик ёндашувдир. Бу тизим нафақат тадбиркорни қўллаб-қувватлайди, балки таълим муассасаларини битирган ёшларнинг иш билан таъминланишига ҳам кучли туртки беради.



### ҒОЯЛАР ЖАМЛАНАДИ — МУНОСИБИ ТАНЛАНАДИ

Президентимиз билан мулоқот давомида Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги ва Ёшлар ишлари агентлиги "Фикрингни бер (VOICE UP)" инклюзив оромгоҳини ташкил қилиб, ёшлар ташаббуси асосида ўндан зиёд лойиҳаларни амалга оширганлиги хусусида алоҳида таъкидланди. **Эндиликда ушбу лойиҳани ҳар бир ҳудудда ўтказиб, 1 минг нафар ёшни қамраб олиш, энг яхши лойиҳаларни таклиф қилган ёшлар иштирокида Самарқанд шаҳрида Халқаро инклюзив ёшлар оромгоҳини ташкил қилиш вазифаси топширилди.** "Ўсиш ва ривожланиш (UPSHIFT)" стартап лойиҳаси кенгайтирилиб, бу йил медиа, дизайн, ҳунармандчилик, ишлаб чиқариш ва инновация




йўналишларида ҳам танлов ўтказилади. Ёшларнинг энг яхши 40 та стартап лойиҳасини молиялаштириш учун 2 миллиард сўм ажратилиши белгиланди.

Бу ташаббусларга жавобан Термиз давлат педагогика институтида **International Inclusive Hub** халқаро таянч инклюзив профессионал таълим маркази томонидан ишлаб чиқилган замонавий ва амалиётга йўналтирилган дастурлари асосида қисқа муддатли ўқув курслари ташкил этилган бўлиб, унда инглиз тили, компьютер тизимлари ва комплекслар, тасвирий санъат — ижодий қобилият ва амалий маҳорат тўгараклари мунтазам фаолият юритаётир. Курслар инклюзив таълим тамойиллари асосида ташкил этилган бўлиб, ҳар бир тингловчининг имконияти ва эҳтиёжлари инобатга олинади.



**Таъкидлаш ўринлики, бугунги кунда олий ўқув юрти жаҳоннинг 25 та йирик интеллектуал салоҳияти баланд олий ўқув юртлари билан халқаро ҳамкорлик алоқалари ўрнатилган бўлиб, хорижлик 57 нафар профессор-ўқитувчилар таълим жараёнига жалб этилган.** Россия Федерацияси ҳамда Франция давлати билан қўшма таълим дастурлари йўлга қўйилиб, 70 нафар профессор-ўқитувчининг хорижда малака ошириши учун шароит яратилди.

Ёшларнинг иш билан таъминланиши нафақат иқтисодий мустақилликни таъминлайди, балки уларнинг ижтимоий фаоллиги, фуқаролик позицияси ва ватанпарварлик туйғусини мустаҳкамлайди. **Банд ёш — бу эртанги тараққиётнинг ишончли кафолати демакдир. Мазкур мулоқотда билдирилган ташаббуслар "инсон қадри учун" тамойилининг амалий ифодаси сифатида баҳоланиши мумкин. Ёшлар сиёсатидаги бундай изчиллик мамлакатнинг узоқ муддатли барқарор ривожланишига хизмат қилади.**

SURXON TONGI va ЗАРЯ СУРХАНА gazetalari tahririyati

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi va viloyat hokimligi

TAHRIR HAY'ATI
Abduraim CHORIYEV (hay'at raisi)
Ilhom SAPAROV,
Ibrohim YOQUBOV,
Murodbek DAVLATOV,
Iqroriddin AYNIDDINOV,
Dinara EGAMBERDIYEVA,
Xurshid KARSHIYEV

Gazeta 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

BOSH MUHARRIR
Salohiddin NORQOBILOV
MAS'UL MUHARRIR
Sayyora ALLAYEVA
NAVBATCHI MUHARRIR
Xurshid KARSHIYEV
SAHIFALOVCHI DIZAYNER
Dildora VOHIDOVA

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

TELEFONLAR:
76 224-23-85,
76 224-23-80,
76 224-23-87

Qog'oz bichimi A-2,
2 bosma taboq
Nashr indeksi: 6 500
Bosishga topshirildi — 09:00
Bosildi — 11:00
Adadi 6 859 nusxa.
Buyurtma Г-

MANZILIMIZ:
Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy

BOSMAXONA MANZILI:
Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy

Gazeta "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetalari tahririyati bosmaxonasida chop etildi.